

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 187 (1248), 2024-yil 14-sentabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



MATONATLI SPORTCHILARGA DAVLAT MUKOFOTLARI TOPSHIRILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-sentabr kuni XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlari g‘olib va sovrindorlari bilan uchrashdi.



Tadbirda Milliy Paralimpiya qo‘mitasi va sport federatsiyalari rahbarlari, murabbiylar, sportchilarning ota-onalari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Ma‘lumki, mazkur musobaqa 28-avgustdan 8-sentabrgacha Fransiya poytaxti Parij shahrida bo‘lib o‘tdi. Unda 168 ta davlatdan 4 ming 400 ga yaqin paralimpiyachilar qatnashdi. O‘zbekistondan

9 ta sport turi bo‘yicha 65 nafar yigit-qiz ishtirok etdi.

Olimpiadada bo‘lganidek, Paralimpiya o‘yinlarida ham mamlakatimiz uchun yutuqlar, rekordlar ko‘p bo‘ldi. Vakillarimiz 10 ta oltin, 9 ta kumush, 7 ta bronza — jami 26 ta medalni qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida dunyoda 13-o‘rinni, Osiyo qit‘asida 3-o‘rinni, turkiy va islom mamlakatlari hamda

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi bo‘yicha 1-o‘rinni egalladi.

Prezident sport jamoatchiligini ushbu natijalar bilan xalqimiz nomidan tabriklab, nutq so‘zladi.

— Paralimpiya o‘yinlari — bu chinakam iroda, jasorat va matonat, ezigulik va gumanizm namoyishi. Siz yuksak marralarni egallab, musobaqalarning haqiqiy qahramonlariga



aylandigiz. O‘zbekiston o‘z sport tarixida ko‘p-kop yutuq va zafarlarni ko‘rgan. Lekin Paralimpiya o‘yinlarida bunday rekord natija ilgari bo‘lmagan edi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Qayd etilganidek, Yaponiyada bo‘lib o‘tgan avvalgi Paralimpiadadan so‘ng kelgusi safar kuchli o‘n beshta davlat qatoriga kirish maqsad qilingan edi. O‘tgan yillar davomida

bu yo‘lda katta tayyorgarlik ko‘rildi. Ijtimoiy davlat tamoyiliga muvofiq, nogironligi bo‘lgan sportchilarga barcha sharoitlar ta‘minlab berildi. Niyat ortig‘i bilan ijobat bo‘lib, mamlakatimiz dunyoda 13-o‘rinni egalladi.

Jumladan, yadro uloqtirish bahslarida oltin medal olgan Husniddin Norbekov uch karra Paralimpiya chempioni bo‘ldi.

Yana bir yadro uloqtiruvchimiz Bobirjon Omonov va dzyudochi Sherzod Namozov ikkinchi bor bunday g‘oliblikka sazovor bo‘ldi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING PARIJDA BO‘LIB O‘TGAN XVII YOZGI PARALIMPIYA O‘YINLARIDA ISHTIROK ETGAN O‘ZBEKISTON SPORT DELEGATSIYASI VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Qadrlı vatandaşlar!

Qahramon o‘g‘il-qizlarim!

Hurmatli ustoz-murabbiylar, muhtaram ota-onalar!

Shu kunlarda jonajon yurtimiz katta bayram shukhi bilan yashamoqda.

Siz, aziz sportchilar Fransiyaning Parij shahrida bo‘lib o‘tgan XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlarida rekord natijalarga erishib, mamlakatimizga mana shunday bayram ruhini olib keldingiz.

Barchangizni olamshumul yutuq va natijalaringiz bilan o‘z nomindan, el-yurtimiz nomidan chin yurakdan samimiy tabriklayman.

Muhtaram do‘stlar!

Ushbu xalqaro sport anjumanida dunyoning 168 ta davlatidan 4 ming 400 ga yaqin eng kuchli va mahoratli sportchilar ishtirok etgani uning nufuzi va miqyosi naqadar ulkan ekanidan dalolat beradi.

Shu ma‘noda, Paralimpiya o‘yinlari — bu chinakam iroda, jasorat va matonat, ezigulik va gumanizm namoyishi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Siz, azmu shijoatli farzandlarimiz g‘oyat keskin bellashuvlarda yuksak

marralarni egallab, musobaqalarning haqiqiy qahramonlariga aylandigiz.

O‘zbekiston jamoasi 10 ta oltin, 9 ta kumush, 7 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida 13-o‘rinni, Osiyo qit‘asida 3-o‘rinni, turkiy va islom mamlakatlari hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi bo‘yicha 1-o‘rinni egallagan buni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston o‘z sport tarixida ko‘p-kop yutuq va zafarlarni ko‘rgan. Lekin Paralimpiya o‘yinlarida bunday rekord natija ilgari hech qachon bo‘lmagan edi.

Bu — sizlarning tinimsiz mehnatingiz, bukilmas irodangiz, iste‘dod va mahoratingiz samarasidir.

Bu — yurtimizda inson qadriini amalda ta‘minlashga qaratilgan tizimli ishlarimiz natijasidir.

O‘z Vatanini jonu dili bilan sevadigan, metin irodali, yuragida o‘ti bor insonlargina shunday ulug‘ ishlarga qodir bo‘ladi.

Xalqimiz sizlar bilan cheksiz faxrlanadi. Katta rahmat sizlarga!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Biz Tokio Paralimpiya o‘yinlaridan so‘ng

keyingi safar albatta kuchli “o‘n beshtalikka” kiramiz, deb euzu niyat qilgan edik.

O‘tgan yillar davomida shu maqsad yo‘lida tinimsiz mehnat qildik. Sportchilarimiz uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib, yuksak marralar uchun puxta zamin tayyorladik.

Natijada O‘zbekiston bu yilgi Paralimpiya o‘yinlarida birinchi marta eng ko‘p tarkib bilan, ya‘ni 9 ta sport turi bo‘yicha 65 nafar sportchi bilan ishtirok etdi.

Ayniqsa, paravelosport bo‘yicha vakillarimiz ushbu musobaqalarda ilk bor qatnashganini alohida e‘tirof etish lozim.

Albatta, Paralimpiya o‘yinlarida erishilgan har bir yutuq, har bir natija beqiyos ahamiyatga ega. Chunki to‘rt yilda bir marta o‘tadigan bunday yirik xalqaro musobaqa orqali dunyo hamjamiyati har bir qatnashchi mamlakatda insonning jismoniy va ma‘naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qanday e‘tibor qaratilayotganiga baho beradi.

Shu bois, sizlar tarixiy yutuqlaringiz bilan O‘zbekiston sha‘nini, yurtimiz nufuzini yuksak bosqichga olib chiqdingiz, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Bugun Paralimpiya yakunlarini tahlil qilar ekanmiz, avvalo, erishilgan rekord natijalarga urg‘u berishimiz tabiiy, albatta.

Avvalo, shuni ta‘kidlash kerakki, ushbu Paralimpiyadada yurtimiz vakillari jami bo‘lib 26 ta medalni qo‘lga kiritib, tarixiy rekord o‘rnatdilar. Bunday mislsiz, yorqin g‘alaba O‘zbekiston tarixiga oltin harflar bilan muhrlandi.

Bu haqda gapirganda, afsonaviy yengil atletikachimiz Husniddin Norbekovning mamlakatimiz tarixida birinchi marta uch karra Paralimpiya chempioni bo‘lganini, shu bilan birga, yangi rekord o‘rnatganini alohida ta‘kidlash lozim.

Pahlavon o‘g‘lonlarimiz Bobirjon Omonov va Sherzod Namozov yadro uloqtirish va dzyudo bo‘yicha ikkinchi bor oltin medallarni qo‘lga kiritdilar. Bobirjon esa Paralimpiya rekordini ham yangilagan yuksak e‘tirofga loyiq.

Mana, bizning qanday bahodir farzandlarimiz bor!

Ayni vaqtda yuksak matonatli qizlarimiz ham O‘zbekiston g‘alabasiga munosib hissa

qo‘shganlari to‘g‘risida har qancha g‘urur va iftixor bilan gapirsak arziydi, albatta. Jamoamiz qo‘lga kiritgan medallarning 11 tasi aynan qizlarimiz hisobiga yozilgan ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Shijoatda tengsiz qizlarimiz Asila Mirzayorova uzunlikka sakrash, Nurxon Qurbonova esa nayza uloqtirish bo‘yicha Paralimpiya chempionlari bo‘ldilar. Ular o‘z natijalari bilan ushbu o‘yinlardagi va jahon miqyosidagi rekordlarni ham yangilaganiga qoyil qolmaslikning iloji yo‘q.

Nurxon qizimiz ayni paytda yadro uloqtirish bo‘yicha bronza medalni ham qo‘lga kiritdi va ikkita medal sohibasiga aylandi.

15 yashar navqiron qizimiz — Shahinaxon Yigitaliyeva kumush medalni qo‘lga kiritib, Paralimpiya o‘yinlaridagi eng yosh sovrindor sifatida tarixga kirdi.

Ofarin sizlarga, ona qizlarim! Baraka topinglar, doimo baxtingizni, omadingizni bersin!

Mohir sportchimiz Tolibboy Yo‘ldoshev ham bir yo‘la ikkita marrani zabt etdi. Ko‘rib turganingizdek, uning ko‘ksida ham oltin va bronza medallar nur sochib turibdi.

Yana bir qahramonimiz, ikki karra Paralimpiya chempioni Yorqinbek Odilov nayza uloqtirish bo‘yicha Osiyo rekordini yangiladi.

Bugun mana shu tantanali marosimda Qudratilloxon Ma‘rufxo‘jayev, Elbek Sultonov, Asadbek Toshemirov, Sherzod Namozov kabi o‘g‘lonlarimizni ham oltin medallar bilan yana bir bor chin yurakdan qutlaymiz.

Qahramon sportchilarimiz erishgan yutuqlar haqida to‘lib-toshib, yana uzoq gapirish mumkin.

Po‘lat irodali qizimiz Ro‘za Qo‘ziyeva pauerlifting bo‘yicha kumush medalni qo‘lga kiritdi. Aslida, bu oltinga teng g‘alaba ekanini butun dunyo tan oldi.

Taekvondo bo‘yicha terma jamoamiz birinchi marta Paralimpiya o‘yinlarida 3 ta medalni qo‘lga kiritdi va umumjamoa hisobida 3-o‘rinni egalladi.

Yengil atletika bo‘yicha vakillarimiz esa birinchi marta 8 ta oltin medalni, ya‘ni eng yuqori sovrinlarning 80 foizini egallaganlari alohida diqqatga sazovordir.

Davomi 2-betda

Munosabat

FAROVONLIKGA ELTUVCHI UMUMMILLIY HARAKAT



Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining ehtiyojmand qatlamini muhofazalash mamlakatimizdagi islohotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Keyingi yillarda bu borada keng qamrovli chora-tadbirlar ko‘rilmogda. Kambag‘allik muammosi borligi tan olinib, uni qisqartirish bo‘yicha alohida tizim joriy qilingani muhim qadamlardan bo‘ldi.

Davomi 3-betda

Dolzarb mavzu

STRATEGIK MASALAGA ALOHIDA YONDASHUV

yoxud OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA qaratilayotgan E‘TIBOR XUSUSIDA

Mamlakatimizda oxirgi uch yilda import o‘rnini bosuvchi 75 turdagi yangi mahsulotlar chiqarilib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublikamiz sanoatida oziq-ovqat ishlab chiqarishning ulushi 14 foizdan 16,6 foizga ko‘paydi.

Prezidentimizning 2024-yil 16-fevraldagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida keltirilgan ushbu raqamlar yurtimizda aholini sifatli va yetarlicha mahsulotlar bilan ta‘minlashga katta e‘tibor qara-

tilayotganini anglatadi. Farmonda, shuningdek, qilinishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalar ham belgilab berildiki, bu mazkur masala uzviy va izchil e‘tiborda ekanini bildiradi.

Davomi 4-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 14-sentabr, 187-son

FAROVONLIKGA ELTUVCHI UMUMMILLIY HARAKAT

Munosabat

“

Yurtimizda bu ishlar 2020-yilda boshlangan edi. O‘shanda 7,5 million yoki 23 foiz aholining daromadi kambag‘allik chegarasiga yetmasdi. O‘tgan yillarda 3,5 million odamni daromadli qilish orqali 2023-yil yakuni bilan kambag‘allik darajasi 11 foizga tushdi.



Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz raisligida kambag‘allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ushbu yo‘nalishda qilinayotgan ishlar tahlil etilib, istiqbolli vazifalar belgilandi.

Ta’kidlanganidek, yurtimizda bu ishlar 2020-yilda boshlangan edi. O‘shanda 7,5 million yoki 23 foiz aholining daromadi kambag‘allik chegarasiga yetmasdi. O‘tgan yillarda 3,5 million odamni daromadli qilish orqali 2023-yil yakuni bilan kambag‘allik darajasi 11 foizga tushdi.

Bu yo‘nalishda oxirgi besh yilda ilg‘or xorijiy yondashuvlar hamda mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, eng quyi bo‘g‘in — mahalla darajasiga tushgan holda kambag‘allikka qarshi kurashish borasida muvaffaqiyatli tajriba yaratildi. Eng avvalo, aholi daromadlarini oshirishda fuqarolarning kasb-hunar egallashi va o‘z biznesini boshlashiga ko‘maklashilyapti.

Mahalladagi hokim yordamchilari bu borada aholiga har tomonlama ko‘mak bermoqda. Birgina xotin-qizlarning tadbirkorlik

tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida joriy yilning o‘tgan davrida 88 ming xotin-qizga 1 trillion 300 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratilgan. Bu respublika bo‘yicha imtiyozli kredit oluvchilarning 56 foizini tashkil etadi. Natijada ayollar orasida tadbirkorlar safi kengayib boryapti. Ular nafaqat oila a‘zolari va yaqinlari, balki mahalladagi ishsiz xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta‘minlashga ham hissa qo‘shmoqda.

Poytaxtimizdagi “Yangi hayot xayriya fondi”



mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari Dilbar Rasulova shunday yurtdoshlarimizdan biri. Dilbar opaning asl kasbi hisobchi. U uzoq yillar shu sohada ishladi. Oxirgi yillarda tadbirkorlik rivoji borasida yaratilayotgan imkoniyatlar ko‘plar qatori uni ham o‘z biznesini boshlashiga undadi. Dastlab tikuvchilikni o‘rganib, kichik sex ochdi. Hozir faoliyatini kengaytirib, oyoq kiyim ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi.

Zamonaviy uy-joylar qurilishi sohasida ham ishlashga taraddud ko‘rmoqda. Hozir u rahbarlik qilayotgan korxonada 15 kishi ishlayapti.



Tadbirkor kelgusida faoliyatini yanada kengaytirish va ish o‘rinlarini ko‘paytirishni maqsad qilgan.

— Jamiyatimizdagi dolzarb muammo — kambag‘allikni bartaraf etish va aholi bandligini ta‘minlashda tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, — deydi D.Rasulova. — Bu masalaga alohida e‘tibor qaratilayotgani boisi ham shunda. Biz, tadbirkorlarning vazifamiz esa bundan oqilona foydalanib, yurtimizdagi islohotlarga ko‘maklashish orqali iqtisodiyotimiz barqarorligini ta‘minlashga hissa qo‘shishdir.

Kambag‘allikni bartaraf etishda aholining yashash sharoitini yaxshilash, ta‘lim va tibbiy xizmatlar ko‘lami va sifatini oshirish ham muhim. 2024-yilning o‘zida bog‘cha va maktablar barpo qilish, tibbiy xizmatni kengaytirish, mahallalarda ichimlik suv, elektr energiyasi, yo‘l infratuzilmasini yaxshilash uchun byudjetdan 31,5 trillion so‘m ajratildi.

Ijtimoiy himoya tizimi kuchaytirilib, davlat ko‘magiga muhtoj oilalarga sifatlari xizmatlar ko‘rsatish ko‘lami kengaydi. Shu maqsadda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi, tumanlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Natijada 2 million 300 mingdan ziyod muhtoj oila, xotin-qiz, yolg‘iz keksa va nogironlari bo‘lgan shaxslar kafolatlangan ijtimoiy himoya bilan qamrab olindi. Bu 2017-yildagiga nisbatan 4 barobar ko‘p demakdir.

Muhim yutuqlarimizdan yana biri bolalar o‘rtasida kambag‘allik ko‘rsatkichi kamayganidir. Ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, yurtimizdagi barcha bolalarning har tomonlama yetuk inson bo‘lib kamol topishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, keyingi yillarda bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrov darajasi 27 foizdan 74 foizga oshirildi. Bolalar o‘rtasidagi kambag‘allik

darajasi oxirgi uch yilda 22 foizdan 14 foizga pasaydi.

Bundan tashqari, yoshlarni yuqori daromadli va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Masalan, “Bir million dasturchi” loyihasi amalga oshirildi, har bir tumanda Axborot texnologiyalari markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bu yo‘nalishda ilg‘or xorijiy uslublar va yangi tajribalarni o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda jahon miqyosida qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalardan biri ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni joriy etishdir. Bunda kambag‘allikka olib keladigan sabablarni aniqlash, ularning ta‘sirini baholash va har bir mamlakatda ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo‘llash muhim rol o‘ynaydi.

Oksford kambag‘allikka qarshi kurashish va inson kapitalini rivojlantirish tashabbusi (OPHI) va BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan global ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi (MPI) joriy etilgan. Unda aholi duch kelayotgan kambag‘allikning tarqalishi va intensivligini baholash uchun sog‘liqni saqlash, ta‘lim va turmush darajasi ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. MPI Inson kambag‘alligi indeksining o‘rmini egallab, rivojlanayotgan 100 dan ziyod mamlakatda allaqachon qo‘llanilmoqda.

Kambag‘allikka qarshi kurashda sa’y-harakatlarni birlashtirish va tajriba almashish maqsadida 2013-yilda 63 ta mamlakat va 30 dan ziyod xalqaro tashkilotdan iborat Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik bo‘yicha global hamkorlik

tarmog‘i tashkil etilgan, u kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yanada samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni baholashda siyosatchilarga yordam beradi. Ushbu tarmoq doirasida har yili dunyoning turli davlatlarida uchrashuvlar o‘tkazilmoqda. Joriy yildagi shunday yirik xalqaro tadbir mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan alohida ahamiyatga ega. Unda qatnashgan 60 dan ortiq davlat ekspertlari yurtimizda qisqa muddatda bu borada yaratilgan tajribani yuqori baholadi.

Videoselektor yig‘ilishida bu yo‘nalishdagi yutuqlar qatorida muammolar ham atroflicha tahlil etildi. Qayd etilganidek, kambag‘allikni faqat pul tarqatish bilan hal qilish imkonsiz. Buning uchun kambag‘al oila a‘zolarini o‘qitish, kasbga o‘rgatish va ish bilan ta‘minlash kerak.

Shuningdek, kambag‘allikka tushish sabablari har xil ekan, yechimi ham alohida-alohida bo‘lishi kerakligi ko‘rsatib o‘tildi. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha keyingi yillar uchun juda katta hujjat — “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi tayyorlanayotgani ma‘lum qilindi. Unda yetitta imkoniyat va mas‘uliyat tayoyili asosida O‘zbekistonning navbatdagi yangi yondashuvlari belgilab beriladi. Qisqa qilib aytganda, bundan buyon kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi.

Ushbu ezuq maqsadlarga erishish uchun mutasaddilarga har bir mahallani to‘liq xatlovdan o‘tkazib, ulardagi “kambag‘al oilalar portreti”ni ishlab chiqish topshirildi.

Nuqtayi nazar



G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Joriy yil 11-sentabr kuni Prezidentimiz raisligida kambag‘allikni qisqartirish ishlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda to‘rt yil avval bu boradagi ishlar boshlanganida 7,5 million yoki 23 foiz aholining daromadi kambag‘allik chegarasiga yetmasligi, shu davrda aholimiz 3,7 million ko‘paygani, kambag‘allik chegarasi ham tegishli ravishda 1,5 karra oshgani qayd etilib, 3,5 million odamni daromadli qilish hisobiga 2023-yil yakuni bilan kambag‘allikni 11 foiz pasaytirishga erishilgani ta’kidlandi.

Albatta, kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlashda eng quyi tizim bo‘lgan mahallalarda ish “xonadonbay” olib borilishi

MAHALLALAR SHAROITINI YAXSHILAMASDAN KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRIB BO‘LMAYDI

“

Viloyatni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish maqsadida 2024-yilning birinchi yarmida 44,4 ming kishining bandligini ta‘minlash rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 51,7 ming kishi ishlil qilindi.



belgilab berdi.

Navoiy viloyatidagi jami 330 ta mahallaning har biriga viloyat hokimligi va tashkilotlar rahbarlaridan mas‘ullar birlashtirilgan bo‘lib, kambag‘al oilalar qanday qilib bu holatga tushgani sabablarini aniqlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, doimiy daromadli ish bilan ta‘minlash, tomorqa madaniyati va oilaviy tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish uchun zarur ko‘mak berilmoqda.

Viloyatda joriy yil yanvar-iyun oylari mobaynida 1,6 mingta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, ular soni 27 mingtaga yetkazildi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 2 trillion so‘m kredit yo‘naltirilib, shundan 354,5 milliard so‘mi

xotin-qizlar, 155,7 milliard so‘mi yoshlar uchun ajratildi.

Viloyatni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish maqsadida 2024-yilning birinchi yarmida 44,4 ming kishining bandligini ta‘minlash rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 51,7 ming kishi ishlil qilindi.

— “Sayxunobod tajribasi” va “Uychi tajribasi” bugun o‘z samarasini bermoqda. Jumladan, “Sayxunobod tajribasi” asosida viloyatdagi 330 mahalladan 2132 ta xonadon ajratib olinib, ularning daromadini oshirish maqsadida tijorat banklari tomonidan 3451 ta moliyaviy loyiha paketi tayyorlandi. Natijada xonadonlarda tomorqadan olinayotgan daromad 50-60 million so‘mga chiqarilishiga erishilib,

4513 kishining bandligi ta‘minlandi. “Uychi tajribasi” asosida esa banklar tomonidan mijozlarning 1417 ta masalasi hal etildi va buning natijasida 19 ming 128 ta doimiy ish o‘rni yaratildi. Mahallalarda 4 mingdan ziyod mikroloiyhaga 129,8 milliard so‘m kredit ajratildi hamda 8 mingga yaqin fuqaroning bandligi ta‘minlandi. Shuningdek, biznesga birinchi qadam yo‘nalishida 27 milliard so‘m, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 7129 ta fuqaro va subyektaga 165,4 milliard so‘m kredit ajratildi, — deydi Navoiy viloyati kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i Lutfullo Xayrullayev.

Viloyatdagi ushbu chora-tadbirlar natijasida kambag‘al oilalar va ishsizlikdan to‘liq xoli mahallalar soni ko‘payib bormoqda. Xususan, Karmana tumanidagi ayni vaqtda 3 ming kishi yashayotgan Mirsaid Bahrom mahallasi to‘liq ishsizlikdan xoli hududga aylangan. Mahallada mehnatga layoqatli fuqarolar soni 1248 nafarni tashkil etib, barchasining bandligi ta‘minlangan. Jumladan, 2023-yilda 117 kishidan 37 nafari doimiy ishlil bo‘ldi, 80 nafari o‘zini o‘zi band qildi. Joriy yilning o‘tgan davrida 268 fuqarodan 154 nafari doimiy, 9 nafari mavsumiy ishga joylashtirilgan, 104 nafari kredit olib, o‘zini o‘zi band qilgan, 1 nafari subsidiya ajratish hisobiga ish bilan ta‘minlangan.

— “Mahalla yettilligi” tashkil etilib, vazifalari aniq belgilab berilgani hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, muammolarni o‘z vaqtida ijobiy hal etish, aholi bandligini ta‘minlashda yangi bosqichni boshlab berdi. Avvallari mahallamizda tadbirkorlik subyektlari ozchilikni tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda yangidan o‘z ishini boshlagan tadbirkorlar soni 120 nafarga yetdi. Shuningdek, subsidiya asosida ishsiz fuqarolarga asbob-uskunalar va mehnat qurollari berilib, ularning bandligi ta‘minlandi. Mahallamizda kambag‘al oilalarga “yettilik” tomonidan barcha zarur ko‘maklar ko‘rsatilgani natijasida hozir ular ham o‘z doimiy daromadlariga ega bo‘ldi, — deydi Mirsaid Bahrom mahallasi raisi Shokir Karimov.

Ushbu mahalladan 47 kishi xorijga ishlashga ketgan bo‘lib, ayni vaqtda ularni yurtga qaytarish va bandligini ta‘minlash choralari ko‘rilmoqda. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan 56 fuqaro, “Ayollar daftari”ga kiritilgan 72 xotin-qiz va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar bilan manzilli ravishda ishlaniib, ularga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatilmoqda.

2022-yilda ushbu mahallada Behzod Savurov hokim yordamchisi sifatida ish boshladi. Mahallada kambag‘allikni qisqartirish va ishsizlikdan xoli hududga aylantirishdagi faoliyati butun viloyatga namuna qilib ko‘rsatilmoqda. Mashaqqatli mehnati, fidoyiligi munosib rag‘bati va rahmatini ham topib, Behzod Savurov mustaqilligimizning 33 yilligi arafasida “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.

— Mahallamiz drayveri sifatida xizmat ko‘rsatish sohasi belgilangan. Shuning uchun hududdagi obyektlar tadbirkorlarga foydalanish uchun berilmoqda va ishga tushirilmoqda. Mahalla hududida bo‘sh turgan binolarga tadbirkorlarni jalb qilish orqali savdo va xizmat ko‘rsatish markazlari tashkil etildi. Yangi loyihalarni ishga tushirish va imtiyozli kreditlar ajratilishi hisobiga 200 ga yaqin ish o‘rni ochildi. Hozir mahallamizni to‘liq ishsizlikdan xoli hududga aylantirganimiz, — deydi Behzod Savurov.

Prezidentimiz videoselektor yig‘ilishida “Odamlarga qancha yordam bermaylik, mahallalar sharoitini yaxshilamasak, kambag‘allik qisqarmaydi”, deya alohida ta’kidladi. Shu maqsadda kelgusi yilda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirishga barcha manbalardan 1,6 milliard dollar ajratilishi aytiladi. Ushbu mablag‘ning 1,2 trillion so‘mi, avvalo, eng og‘ir 300 ta mahallada suv nasoslari va quyosh panellari o‘rnatishga beriladi. Yana 2 trillion so‘m hisobidan eng og‘ir 500 ta mahallada elektr, yo‘l, internet va boshqa infratuzilma masalalari hal etiladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun vazirlar, o‘rinbosarlari va maslahatchilari, boshqarma boshliqlaridan iborat 250 rahbarga eng og‘ir 1 mingta mahalla bog‘lab berilishi ta’kidlandi. Shuningdek, viloyatdagi 2 ming va tumandagi 12 ming rahbarning har biriga sharoiti eng og‘ir 5 tadan oila birlashtirildi.

Ko‘rinib turibdiki, endi mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish bo‘yicha butkul yangicha tizim yo‘lga qo‘yiladi. Prezidentimiz yig‘ilishda ta’kidlaganidek, kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi.

“ Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi xalq farovonligi, iqtisodiyot barqarorligi asosidir. Shu bois, yurtimizda mazkur yo‘nalishdagi ishlarga tizimli ravishda e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, joriy yilda ehtiyojimizga mos qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish barobarida 3,5 million dollarlik mahsulotlarni eksport qilish rejalashtirilgan. Bu 5,6 million tonna mahsulot, degani. Quvonarlisi, bizda eksport hajmini yanada oshirish imkoniyati bor.

► Boshlanishi 1-betda

Xususan, hujjat bilan keyingi besh yilda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga va eksport ko‘rsatkichlarini 2 barobarga oshirish maqsadi qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta‘minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi tasdiqlandi. Strategiya, asosan, uchta yo‘nalishni qamrab olgan. Birinchisi,

erishilayotganini ham inkor etib bo‘lmaydi. Lekin jahon siyosati va iqtisodiyotidagi inqirozlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimida zanjirlar uzilishiga, narxlar oshishiga sabab bo‘layotgani, global iqlim o‘zgarishlari, kutilgan va kutilmagan tabiiy ofatlar tufayli agrar tarmoqda muammolar vujudga kelayotganini ham tan olmaslikning iloji yo‘q.

anglash mushkul emas. Unda oziq-ovqat xavfsizligi va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar duch keladigan noyob va umumiy muammolarga e‘tibor qaratilish barobarida tashish, yetkazib berish masalalari ham keng muhokama qilindi. “Mazkur forum dengizga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlar o‘rtasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi va oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini muhokama qilish uchun katta maydon yaratgani bilan ahamiyatli bo‘ldi. Bu bugungi globalashayotgan davrda juda muhim. Sir emas, hozir Yer yuzida iqlim o‘zgarishi bois, yuz berayotgan tabiiy ofatlar. suv tanqisligi, qurg‘oqchilik kabi omillar oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda yetarlicha muammolar tug‘dirmoqda. Oqibatda dunyo oziq-ovqat bozorida narx-navo ko‘tarilishi

oshirilmoqda. Bir yil ichida dehqonchilik, maktablarda ovqatlanish, veterinariya, agrokimyo va boshqa sohalarida 7 ta yangi loyiha ishga tushirildi. — Mamlakatimizda aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlashga

O‘zbekistonning dengizga chiqish imkoniyati yo‘q dunyodagi sanoqli davlatlardan biri ekan va ushbu mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligi hamda barqaror rivojlanish masalalarida duch kelayotgan muammolari va imkoniyatlarini aks ettiruvchi istiqbollari muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, suv resurslarini barqaror boshqarish O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi muvaffaqiyatining kalitidir. Barqaror suv resurslarini boshqarish amaliyoti nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish, balki ushbu resurslarning uzoq muddatli saqlanishini ham ta‘minlaydi.

O‘zbekiston hududining bor-yo‘g‘i 10 foizga yaqini haydaladigan yerlardan iborat. Bu aholi jon boshiga taxminan 0,12 gektarni tashkil etadi. Mana shular ham bugun ushbu masala qanchalik muhim bo‘lib borayotganini bildiradi, nazarinmizda.

Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi xalq farovonligi, iqtisodiyot barqarorligi asosidir. Shu bois, yurtimizda mazkur yo‘nalishdagi ishlarga tizimli ravishda e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, joriy yilda ehtiyojimizga mos qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish barobarida 3,5 million dollarlik mahsulotlarni eksport qilish rejalashtirilgan. Bu 5,6 million tonna mahsulot, degani. Quvonarlisi, bizda eksport hajmini yanada oshirish imkoniyati bor.

O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom oziqlanishni ta‘minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Strategiya asosida sohada amalga oshiriladigan umumiy choralar belgilab olinmoqda. Xususan, odamlarning sog‘lom hayot tarzini ta‘minlash maqsadida “Organik mahsulotlar to‘g‘risida”gi



“ Respublikamizda 2021-2023-yillar davomida g‘alladan gektaridan hosildorlikni 6,4 sentner oshirishga erishildi. Natijada bu yil har qachongidan ko‘p don xirmoni ko‘tarildi.



STRATEGIK MASALAGA ALOHIDA YONDASHUV

yoxud OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA qaratilayotgan E‘TIBOR XUSUSIDA

oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishini, odamlarning sog‘lom va faol hayot kechirishini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lsa, erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan holda strategik ahamiyatga ega qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari zaxiralarini ko‘paytirish ikkinchi maqsad sifatida qo‘yildi. Uchinchisida esa ushbu jarayonda tabiiy va texnogen ofatlar, global siyosiy hamda iqtisodiy inqirozlar ta‘sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish kabilar qamrab olindi.

Bu faqat qorin to‘ydirish degani emas

Ma‘lumotlarga qaraganda, hozirgi kunda dunyo bo‘yicha kam vaznli tug‘ilish 15 foizni tashkil qilmoqda. Shuningdek, besh yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida rivojlanishning sekinlashuvi 22,3 foizgacha kamaygan, lekin bu ham hali belgilangan me‘yordan yuqori. Sizingincha, buning sababi nimada? Bunga bir tomondan turmush sharoiti, ekologik holatlar ham sabab bo‘lishi mumkin. Lekin bu yerda yetarlicha ovqatlanmaslik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tabiiy nuqtayi nazardan allaqachon isbotlangan haqiqat.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, oddiy qilib aytganda, odamlarning to‘yib ovqatlanishi faqat qishloq xo‘jaligiga tegishli masala emas. U tabiiyot, degani. U ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning oldini olish, degani. Demak, masalaga yanada jiddiy e‘tibor qaratish darkor. To‘g‘ri, so‘nggi yillarda innovation texnologiyalarning keng joriy etilishi tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keskin oshyapti. Tobora ko‘payib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta‘minlashda sezilarli yutuqlarga

BMT tomonidan chop etilgan hisobotda keltirilishicha, o‘tgan yili dunyoda to‘yib ovqatlanmaslik ko‘lami 2008-2009-yillardagi darajaga qaytgan. “Ba’zi sohalardagi ayrim yutuqlarga qaramay, tashvishli darajada ko‘p odamlar oziq-ovqat tanqisligi va to‘yib ovqatlanmaslikka duch kelmoqda. Dunyoda och qolganlar soni ketma-ket uch yil kamaymayapti: 2023-yilda 713 milliondan 757 milliongacha odam to‘yib ovqatlanmadi, bu 2019-yildagiga nisbatan qariyb 152 million kishiga ko‘pdir”, deyiladi hujjatda.

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi (IFAD), Bolalar jamg‘armasi (UNICEF), BMT Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP) va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ogohlantirmoqda: agar vaziyat hozirgidek davom etaversa, 2030-yilda taxminan 582 million kishi surunkali kam ovqatlanishdan aziyat chekadi.

Hisobot mualliflari fikricha, dunyo aholisining uchdan biridan ko‘prog‘iga ta’sir qiladigan yana bir katta muammo sog‘lom oziq-ovqat sotib olish bilan bog‘liq. Bu nomutanosiblik aholining 71,5 foizi sog‘lom ovqatlanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan kam daromadli mamlakatlarda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi, yuqori daromadli mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 6,3 foizni tashkil qiladi.

UNICEFning 2024-yilda e‘lon qilingan bolalar oziq-ovqat qashshoqligi bo‘yicha so‘nggi hisobotiga ko‘ra, dunyoning 64 davlatida bolalarning to‘yib ovqatlanmasligi muammosi bor. Xabaringiz bor, yaqinda poytaxtimizda Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan davlatlar oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha xalqaro forum bo‘lib o‘tdi. Yuqoridagi vaziyat va holatlarni inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur anjumanning ahamiyati qanchalik ekanini

kuzatilmoqda. Mana shunday murakkab sharoitda Prezident Shavkat Mirziyoyev qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish dasturlarini qabul qilgani diqqatga sazovor”, dedi BMTning Eng kam rivojlangan va dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha oliy vakili Rabab Fotima.



Umuman, O‘zbekistonda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami keng. Bu xususan Prezidentimizning xalqaro forum doirasida yurtimizga tashrif buyurgan ushbu tashkilot bosh direktori Syuy Dunuyv bilan uchrashuvida alohida qayd etildi. Xususan, ayni paytda hamkorlikda 34 ta loyiha amalga

bandligi va o‘z navbatida, daromad manbai ta‘minlandi.

Bugungi kunda butun dunyo, jumladan, yurtimizda ham sodir bo‘layotgan iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining tobora tanqislashuvi, cho‘llashuv darajasining oshishi ko‘p tarmoqli agrar soha mehnatkashlari va olimlari oldiga ko‘plab muammolar yechimini topish masalasini qo‘ymoqda.

Zarur choralar ko‘rish vaqti kelgan

Aytib o‘tganimizdek, oziq-ovqat xavfsizligi odamlarni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlashga bog‘liq. Bu barqaror, adolati va bardoshli tizimlarni yaratish, degani. Yerlar degradatsiyasi, suv taqchilligi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi, global va tabiiy muammolar esa ishlarga sezilarli sabiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda tuproq sho‘rlanishi keskin holatda. Ya’ni 4,2 million gektar sug‘oriladigan yerlarning qariyb 1,8 million gektarida turli darajadagi sho‘rlanishlar kuzatilgan. Bu muammo qishloq xo‘jaligi hosildorligini pasaytirib, yerlarning yanada degradatsiyasiga va iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi. Shu bois, hozirgi kunda mazkur muammoni hal etishda yangi usullar, innovatsiyalar va qo‘llab-quvvatlovchi chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvlar joriy etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Agrar tadbirkorlik subyektlariga oziq-ovqat sohasida xalqaro sertifikatlar olinishiga ko‘maklashish amaliyotini joriy qilish natijasida 808 ta (shundan 37 ta “Organic”, 250 ta “Global G.A.P.”, 438 ta “Sifat boshqaruv tizimi (ISO 9001, ISO 22000 va boshqalar)”, 30 ta “HALAL” hamda 53 ta turli yo‘nalishlardagi (FSSC 22000 OEKO-TEX, SEDEX va h.k) xalqaro sertifikat olinishi ta‘minlandi. 2023-yilda 10,6 ming gektarga organik usulda qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilib, 31,7 ming tonna mahsulot yetishtirildi.

Respublikamizda 2021-2023-yillar davomida g‘alladan gektaridan hosildorlikni 6,4 sentner oshirishga erishildi. Natijada bu yil har qachongidan ko‘p don xirmoni ko‘tarildi.

Meva-sabzavot, uzum, poliz va kartoshka mahsulotlari yetishtirishni yanada ko‘paytirish, aholining asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘la qondirish, qayta ishlash va eksportbop hajmlarini oshirish, bozorlardagi narx-navo barqarorligini ta‘minlash maqsadida sohani rivojlantirishda bir qator tizimli ishlar qilinmoqda. Natijada 2023-yilda 22,5 million tonna (2022-yilga nisbatan 755 ming tonna ko‘p) mahsulot yetishtirilgan.

Qishloq xo‘jaligida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, qishloq hududlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shunga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Osiyo taraqqiyot banki va Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi ishtirokida oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligini sohasida investitsiya loyihalarini hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Xususan, xalqaro moliya institutlari ishtirokida qishloq xo‘jaligi sohasida umumiy qiymati 2 milliard 62 ming dollarlik 7 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ham aholining demografik o‘shish darajasi yildan yilga ortib boryapti. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, 2030-yilga borib yurtimiz aholisi 41 milliondan ziyodni tashkil etadi. Bu oziq-ovqatga ehtiyojni ham oshiradi. Bugungi ko‘rilayotgan choralar ana shu talabni qondirishga qaratilgan sa‘y-harakatlardir.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Agrotarmoq

Prezidentimizning 2023-yil 15-dekabrda “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan mazkur yo‘nalishga oid bir qator aniq vazifalar belgilab berilgan edi. Shundan kelib chiqib, o‘tgan vaqt mobaynida urug‘chilik tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha 10 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar — qonun, qaror va sohaga oid nizomlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. Bunda Xitoy, AQSH, Turkiya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganilib, sohani takomillashtirish borasida yangi normalar kiritildi.



Jo‘raqul BOBOYEV, Qishloq xo‘jaligi vazirligi Urug‘chilik boshqarmasi boshlig‘i

Galdagi vazifa esa tarmoqni raqamlashtirish edi. Shu bois, vazirlikimiz tashabbusiga asosan, “Uzinfocom” kompaniyasi bilan hamkorlikda “agrotarmoq.uz” axborot platformasi yaratildi. Natijada 2024-yildan boshlab paxta va g‘alla urug‘chiligi bo‘yicha elektron aprobatiya va tender modullari ishga tushirildi. Bu orqali urug‘lik yetishtiruvchi fermer (subyekt)lariga bir qator imkoniyat va qulayliklar yaratildi.

Gap shundaki, bugungi urug‘chilik bilan shug‘ullanuvchilar orasida uni yetkazib berish bo‘yicha ayrim hollarda sog‘lom raqobat buzilishi holatlari kuzatilib turadi. Shu nuqtayi nazardan, urug‘chilik tizimini raqamlashtirishga turki bo‘lgan omillar qaysi deyilganda, avvalo, urug‘liklarni yetishtirish huquqiga ega bo‘lish uchun qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘rtasida tanlov o‘tkazish bosqichlari keltirilardi. Chunki



ilgari mazkur jarayonning barcha bosqichida inson omili ishtirok etardi.

Qishloq xo‘jaligi asosi sanalgan urug‘chilikni shaffof hamda ochiq elektron tizimning ishga tushirilishi turli korruption holatlarning oldini

olish barobarida sifatli urug‘liklar yetishtirish uchun ham asos bo‘ladi.

Tizim tanlovda ishtirok etuvchi urug‘chilik subyektlari ma‘lumotlarini avtomatik tahlil qiladi. Tuproq ball boniteti eng yuqori, xo‘jalikda foydalaniladigan texnikalar, suv bilan ta‘minlanganlik darajasi va urug‘chilik sohasidagi tajribalarini inobatga olib tender o‘tkazadi.

Endi urug‘chilik xo‘jaliklari vakillari tender hujjatlarini to‘plash uchun vaqt yo‘qotib, turli tashkilotlarga bormaydi, balki elektron platforma orqali onlayn tarzda tuman tender komissiyasiga ariza bersa kifoya. Tuman tender komissiyasi a‘zolari esa o‘zlarining shaxsiy elektron kabinetidan fermer (subyekt)lar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni dasturga joylab, elektron raqamli imzosi bilan imzolaydi. Urug‘chilik xo‘jaliklari tomonidan to‘plangan reyting ballari dasturda onlayn baholanadi.

Quvonarlisi, bugungi kunga kelib, ushbu ish tutumi ancha ommalashdi. Fermerlar uning afzalligini to‘la anglab yermoqda. Hududlarda o‘tkazilgan tender tanlovlari 2668 ta urug‘chilik subyekti g‘olib bo‘lib, jami 82,6 ming gektar maydonda urug‘lik don yetishtirilishi ta‘minlangani, 2025-yil hosili uchun 211 ming tonna standart talablariga javob beradigan urug‘lik don jamg‘artilgan buning tasdiq‘idir.

Hozirgi kunda tayyorlangan urug‘lik ekish uchun saralanib, qishloq xo‘jaligi zararkunanda va hasharotlariga qarshi kimyoviy preparatlar bilan ishlov berilib, qadoqlangan hamda sertifikatlangan holda fermer xo‘jaliklariga yetkazilmoqda.

PLATFORMA TANISH-BILISHCHILIKNI INKOR ETADI

QARINDOSHLAR o‘rtasidagi NIKOH

UNI TAQIQLASH BO‘YICHA QONUNCHILIKGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH TAKLIF QILINMOQDA

Davra suhbat

To‘rt muchasi sog‘ farzand — Yaratganning ulug‘ ne‘mati, oila quvonchi, jamiyatning bebaho boyligi. Aqlan va jismonan yetuk o‘g‘il-qiz ota-onasining, elu yurtning umidi, ertangi kun davomchisi. Insonning baxti ham, iqboli ham, orzu va umidlari ro‘yobi ham barkamol farzand bilan.

Aksi bo‘lsa-chi? Nosog‘lom bola tufayli oila a‘zolariga yetadigan ruhiy-ma‘naviy jarohat, jamiyatga ta‘sir ko‘lamini ko‘z oldingizga keltirsangiz, manzaraning naqadar ayanchli va og‘riqli ekani namoyon bo‘ladi. Yon-atrofimizda buning guvohi bo‘lib kelyapmiz.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyoda orfan kasalliklarning 7 mingga yaqin turi ma‘lum

bo‘lib, ularning 72 foizi irsiydir. Qolganlari infeksiya, allergiya va ekologik sabablar natijasida rivojlanadi. Dunyoda chaqaloqlar o‘limining 40 foizi irsiy kasalliklar tufayli yuzaga keladi. Bunday oqibatlarining bittasi qarindoshlar o‘rtasidagi nikohdir. Zamonaviy tibbiyot bir-biriga begona er-xotinning tug‘ilajak bolasiga qaraganda qarindoshlar o‘rtasida tug‘iladigan go‘dakda irsiy kasalliklar xavfi 3-4 baravar ko‘pligi va turli nuqsonlar kuzatilishini isbotlab kelmoqda. Qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning salbiy oqibatlari ko‘proq nimalarda namoyon bo‘lmoqda? Biz mavzu doirasida mutaxassislar fikri bilan qiziqdik.

ishsizlar ro‘yxatiga tushadi, bilimi, hunari yo‘q qiz jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmaydi.

Erta tug‘uruqlarning tibbiy asoratlari ham kam emas. Homila noto‘g‘ri joylashadi, tushadi yoki erda tug‘iladi, yangi tug‘ilgan chaqaloqda to‘satdan o‘lim sindromi yuzaga keladi. Bolada Daun kabi sindromlar kuzatiladi, kamqonlik tufayli og‘ir toksikoz, placentaning erda ajralishi, ayrim hollarda bolaning nogiron bo‘lib tug‘ilishi, hattoki tug‘uruq jarayoni o‘lim bilan tugashi mumkin. Shuningdek, yosh o‘smir qiz ham jismonan, ham ruhan sinib qoladi. Erta nikoh va erda tug‘uruqlarning salbiy oqibatlari haqida uzoq gapirish mumkin. Afsuski, bu holatlar yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohda ham kuzatilmoqda.

O‘zbekiston qonunchiligida qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning oldini olishga qaratilgan normalar belgilangan. Xususan, Oila kodeksiga ko‘ra, nikoh tuzishga quyidagi holatlarda, ya‘ni:

- loaqal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida;
- nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘g‘ay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida;
- loaqal bittasi ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida yo‘l qo‘yilmaydi.

Xalqaro tajriba o‘rganilganda aniqlandi, ko‘pgina davlatlarning fuqarolik va oila qonunchiligida yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzishga ruxsat etilmaydi. Masalan, AQSHning 26 shtatida, Janubiy Koreyada va boshqa qator davlatlarda to‘rtinchi darajali qarindoshlar nikohi taqiqlangan. Xitoy 1981-yildan beri to‘rtinchi darajali qarindoshlar nikohini taqiqlab qo‘ygan.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning zarari va xavfi tobora ortib borayotganini hisobga olgan holda oila institutini mustahkamlash, farzandlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, millat genofondini saqlash maqsadida Oila kodeksiga nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarga yon shajara bo‘yicha (qarindoshlikning uchinchi va to‘rtinchi darajasi) qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarni ham kiritishni maqsadga muvofiq deb o‘ylayman. Bu bilan naslimiz davomchilari bo‘lgan avlodlarimizning sog‘lom dunyoga kelishiga, millatimiz genofondini saqlashga erishamiz.

Agar birinchi darajadagi qarindosh bo‘lsak, demak, bolaning nasliy kasallik bilan tug‘ilish ehtimoli katta. Lekin ikkinchi, uchinchi darajadagi yoki yon shajara bilan qarindosh bo‘lsak, bunday xavf yo‘qoladi deb o‘ylashadi. Ming afsus, unday emas. Birinchi darajada nasliy kasallik bilan tug‘ilish ehtimoli 25 foizni tashkil etsa, ikkinchi darajada 12 foiz, uchinchi darajada 6,5 foizga tushadi. Shu tariqa 7-darajaga kelgandan keyin bu 1 foizni tashkil etishi mumkin. Shundan so‘nggina biz ular bir-biriga begona bo‘ldi deb aytishimiz mumkin.

Malika ISAMUHAMMEDOVA, tibbiyot fanlari nomzodi, genetik:

— Ish tajribamda qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh oqibatlariga tez-tez duch kelaman. Farzandi nosog‘lom dunyoga kelgan oila nihoyatda tushkunlikka tushib qolganini ko‘p ko‘rganman. O‘zaro munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatlar, oilalarning buzilish darajasigacha kelishiga sabab bo‘lgan bu holatlarimni juda og‘riqli qabul qilaman. Chunki bu yerda eng ko‘p jabr ko‘radigan farzand va jamiyatdir.

Hozirgi kunda nasliy kasalliklarning 6 mingdan ziyod turi mavjud va biz ularning eng ko‘p uchraydigan turlarini bilamiz, xolos. Ayni paytda mamlakatimizda referens laboratoriyalar faoliyat boshlagan, ayrim kasalliklarni erda aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lyapmiz. Lekin bu muammoga yechim bo‘lmaydi. Afsuski, nasliy kasalliklar davosizdir. Hozirgi paytda genetik kasalliklar uchun dori-darmonlar ishlab chiqarilmoqda. Ammo bu dori-darmonlar kasallikni tuzatmaydi, bemorning turmush, hayot sifatini oshirish uchun xizmat qiladi, xolos.

Nima uchun qarindoshlar o‘rtasidagi nikohda bunday genetik kasalliklarning uchrashi ehtimoli 2-3 baravar ko‘proq?



Har birimiz tanamizda 15 foizga qadar turli mutatsiyalarni saqlaymiz. Bu me‘yor sanaladi. Mazkur mutatsiyalar tashuvchilik holatida bo‘lgani uchun biz sog‘lom tashuvchi hisoblanamiz. Chunki qarindosh bo‘lmagan, yetti yot begonalar o‘rtasida qurilgan turmushda bu mutatsiyalarning to‘qnash kelishi ehtimoli kam. Lekin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohda bunday omil 2-3 baravar oshadi. Bu esa oilada nasliy kasallikka uchragan bola tug‘ilishi ehtimoli ortadi, degani.

Agar birinchi darajadagi qarindosh bo‘lsak, demak, bolaning nasliy kasallik bilan tug‘ilish

ehtimoli katta. Lekin ikkinchi, uchinchi darajadagi yoki yon shajara bilan qarindosh bo‘lsak, bunday xavf yo‘qoladi deb o‘ylashadi. Ming afsus, unday emas. Birinchi darajada nasliy kasallik bilan tug‘ilish ehtimoli 25 foizni tashkil etsa, ikkinchi darajada 12 foiz, uchinchi darajada 6,5 foizga tushadi. Shu tariqa 7-darajaga kelgandan keyin bu 1 foizni tashkil etishi mumkin. Shundan so‘nggina biz ular bir-biriga begona bo‘ldi deb aytishimiz mumkin.

Azal-azaldan turmush qurayotgan yigit yoki qiz tomonning yetti avlodi bejiz surishtirilgan. Hozirgi kunda bunday surishtirish nihoyatda kam. Ba‘zan yoshlar oldimga kelib, turmush qurmoqchi ekanini, kelgusida farzandlari qay darajada sog‘lom tug‘ilishi haqida so‘raydi. Shunda ularning ota-onalarini, oilaning kattalarini chaqiraman. Kelgusida qanday farzand tug‘ilishini hatto genetik fani ham oldindan aytib bera olmasligini ta‘kidlayman. Agar shu oilada birinchi farzand sog‘lom tug‘ilgan taqdirda ham keyingisi to‘rt muchasi sog‘ dunyoga kelishiga hech kim kafolat berolmasligini tushuntiraman. Bu taqdimni sinovga qo‘yish bilan tengdir.

Birgina orqa miya mushak atrofiyasi bilan tug‘ilgan bolaning hozirgi kundagi sarf-xarajatini ko‘z oldingizga keltirsangiz, oilaga oson emasligi ayon bo‘ladi. Bunday bola aql-idrok tomonidan yetuk, mukammal bo‘ladi. Faqatgina harakat imkoniyatlari

sekin-sekin so‘nib boradi. Chunki vaqt o‘tishi bilan mushaklarni harakatga keltiruvchi nerv hujayralari nobud bo‘la boshlaydi. Bolalar bora-bora harakatda orqada qoladi. Nafas a‘zolari, yurak, barcha harakat funksiyalari zaiflashadi va afsus, erda nobud bo‘ladi.

Hozirgi kunda orqa miya mushak atrofiyasi aniqlangan, genetik jihatdan tasdiqlangan bolalarga gen terapiyasi dori-darmoni ajratilmoqda. Har bitta flakon 6 ming dollar turadi. Bemor bola butun umr davomida bu dorini ichib borishi kerak. Bola o‘sgan sari bir oyda ikki-uchta flakon dori talab etiladi. Bu juda katta mablag‘. Oila bor-yo‘g‘ini sotsa ham bolani oyogga turg‘iza olmaydi.

Ba‘zan misol keltirishadi, “Qo‘shnim yoki qarindoshimning farzandi raso, meniki ham sog‘lom tug‘iladi”, deya. Bu katta xato. Har bir organizm individual. Hech kim o‘zini boshqa bilan solishtira olmaydi. Aksi bo‘lsa-chi? Buni aynan boshidan o‘tkazgan insonlar yaxshi tushunadi. Ota-onalar bor-yo‘g‘ini sarflasa ham bolasini tuzatda ololmasligini biladi. Qarindoshlar o‘rtasida tuzilgan nikohning salbiy oqibatlarini tushunib yetganida esa kech bo‘ladi. Bunday oqibatlariga butun hayotini, umrini sarflamaslik uchun inson o‘z qarorlariga o‘zi mas‘ul bo‘lishi lozim. Shundagina bizdan qoladigan naslga va millatimizning sog‘lom genofondiga o‘zimizning hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

Mavluda NIZOMOVA, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i:

— Afsuski, yaqin qarindoshlar bilan quda-anda bo‘lishga intilish ayrim hududlarda bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda. Qarindoshlar o‘rtasida tuziladigan nikohga, asosan, katta yoshlilar yetakchilik qiladi, yoshlar turmush o‘rtog‘ini tanlashda deyarli ishtirok etmayotganini ko‘rish mumkin. O‘rganishlarda O‘zbekistondagi qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning 58,1 foizi bobo va buvilar, 56,4 foizi ota-onalar, qolganlari esa to‘g‘a, xola va ammalar tashabbusi bilan tuzilishi ma‘lum bo‘ldi. Asosiy sabablardan biri qarindosh-urug‘chilikni yanada mustahkamlash va mol-mulkni begonalar qo‘liga o‘tib ketishdan muhofazalash, ota-onalar yoki bobo-buvilarning keksayganda o‘z huzur-halovatini o‘ylashidir. Milliy mentalitetimizdagi qarindoshlik rishtalarini saqlab qolish kabi istaklar millat genofondini, aholi salomatligi va davlat qudratini, kelajakni o‘ylamaydigan fuqarolarda ustuvor.

Darvoqe, keyingi yillarda qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar oqibatida nogiron farzandlar tug‘ilishi ulushi oshayotgani xavotirli. Bu esa yana bir oilaning darz ketishiga, bir onaning umrbod nogiron farzandi taqdiriga sherik bo‘lib yashashga mahkum etilishidir. Ya‘ni muammolar girdobi kengayishi: ajrim, aliment, nogironlik nafaqasi, baxtsizlik, ayonning tushkunligi...

O‘zbekistonda yaqin qarindoshlar orasidagi nikoh teng tarqalgan holat bo‘lib, bu retsessiv irsiy kasalliklar bilan tug‘ilayotgan bolalar soni ortishiga olib kelmoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, yaqin qarindoshlar bilan oila qurishning salbiy oqibatlari tufayli irsiy kasalliklar bilan tug‘ilgan va kasallangan bolalar ko‘plab qayd etilmoqda.

Tahlillar natijasiga ko‘ra, tug‘ma nuqson va irsiy kasalliklar bilan tug‘ilgan bolalarning 9,7 foizi yaqin qarindoshlar nikohi bilan bog‘liq. Hududlar kesimida rivojlanishida tug‘ma nuqsoni va irsiy kasalliklar bilan tug‘ilgan bolalar o‘rtasida eng ko‘p qarindoshlar nikohidan tug‘ilganlik ko‘rsatkichlari Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariga to‘g‘ri kelmoqda. Shuningdek, Sirdaryo, Andijon, Samarqand, Buxoro viloyatlarida ham ko‘p uchraydi.



Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida 2024-yilning besh oyi davomida 6660 bemor bolaga statsionar tartibda tibbiy xizmat ko‘rsatilgan bo‘lib, shundan nevrologiya bo‘limi bemorlarining 28,9 foizi, gastroenterologiya bo‘limining 21,5 foizi, LOR bo‘limi bemorlarining 34,9 foizi irsiy-genetik kasalliklar sabab davolangan, ular 28,9 foizining ota-onalari yaqin qarindosh bo‘lgan.

Tahlillar va o‘rganishlarga ko‘ra, qarindoshlar o‘rtasida tuziladigan oilalarning 25,2 foizida ziddiyat va nizolar uchrab turadi, 24,9 foizida nogiron farzandlar bor, 8,9 foizida qarindosh-urug‘lar o‘rtasiga sovuqlik tushgan, qarindoshlik rishtalari uzilgan.

Biz har kuni targ‘ibot qilsak-da, baribir holatlar kamaymayapti. Aksincha, nogiron farzandlarning tug‘ilish ko‘rsatkichi ortmoqda. Shu sababli bizda ham qonun bilan buni taqiqlash vaqti keldi.

Oila kodeksida qarindoshlik tushunchalariga qonuniy ta‘rif berilgan. Jumladan, tug‘ishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning ikkinchi darajasida, to‘g‘a va amaki, amma va xola o‘z jiyanalari bilan qarindoshlikning uchinchi, to‘g‘avachcha, amakivachcha, amnavachcha va xolavachchalar esa to‘rtinchi darajasida turadi.

Bugungi kunda qonunchilikka uchinchi tibbiy genetik tekshiruvlar (DNK testi) natijasi ijobiy bo‘lgan nikohlarga istisno tariqasida ruxsat berish taklif qilinmoqda.

Shuningdek, erda nikoh, erda unashtiruv holatlarida ota-onaga nisbatan choralarni kuchaytirish, nikohlanuvchilarning tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi bilan bog‘liq muammolar ham kiritilmoqda. Targ‘ibot ishlari olib borilmoqda, lekin yagona chora qonun bilan cheklov qo‘yishdir.

Ma‘mura AHROROVA, psixonevrolog:

— Yaxshi qiz (o‘g‘il) begona bo‘lmasin, mol-mulkimga begona egalik qilmasin, qarindoshlik rishtalari mustahkam bog‘lanib qolsin, keksayganimda birovga qarab qolmay degan maqsadda tuzilayotgan nikohlar aksincha aks sado bermoqda. Ota-onalar o‘z farzandlari, ayniqsa, qizlari baxtsiz bo‘lib qolishiga sabab bo‘lmoqda. “Taqdiri shu ekan-da, peshanasiga yozilgani-da”, deb o‘zini ovutishi mumkin. Ammo bunda ota-onalarning ham aybi katta.

Nogiron farzand tug‘ilgan oiladagi ruhiy jarohatlar o‘rnini hech narsa bilan to‘ldirib bo‘lmaydi.

Qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning salbiy oqibatlari faqatgina nogiron farzandlar tug‘ilishi emas, uning ortidan oilalarning, onalarning, jamiyatning aziyat chekishida namoyon bo‘ladi. Oilaviy ajralishlar ortishi, onalar bir umr nogiron farzandlariga bog‘lanib qolishi, ruhiy jarohatlar, norozilik kayfiyati shakllanishi kabilar o‘z-o‘zidan muammolarni ham ko‘paytiraveradi.

Shunday muammolarning oldini olish uchun qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh oqibatlarini yoshlarga ertaroq anglatishimiz kerak. Shu tushuncha bilan katta bo‘lgan yigit yoki qiz turmush qurayotganda ushbu salbiy oqibatlarni yodda tutadi va farzandlari nosog‘lom tug‘ilishi, hayoti parokanda bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Muhayyo SOBIROVA, uy bekasi (Toshkent shahri):

— Turmush o‘rtog‘im bilan 3-darajada qarindoshmiz. 5 farzandimiz bor. Shundan to‘rt nafari nogiron tug‘ildi. Olib bormagan joyimiz qolmadi. Ammo foydasiz. Uch nafar nogiron farzandimni tuproqqa qo‘yganman. Mikrotsefaliya tashxisi bilan dunyoga kelgan bir farzandim hozir hayot. Shukrkki, to‘ng‘ichim sog‘lom. Shugina hayotimga mazmun bag‘ishlab turibdi.

Turmush qurishimizga qaynotam sabab bo‘lgan. “Hamma qarindoshlarning ham bolasi nosog‘lom tug‘ilmaydi. Palonchi ham, pistonchi ham qarindosh, bolalari oydek-ku.

Sizlarga yordam qilganman, o‘qitganman, yedirib-ichirganman”, deya ota-onamni holi-joniga qo‘ymagan. Shu tariqa turmushga chiqishga majbur bo‘lganman.

Turmush o‘rtog‘im bilan yaxshi yashadik. Hatto bolalarimiz nogiron tug‘ilgan taqdirda ham biror marta uning zardasi yoki mehrsizligini his qilmaganman. Ammo bir kam dunyo ekan, bolalarimizni birin-ketin tuproqqa qo‘yayotganda yurak-bag‘rini o‘kinch va alam ezayotganini ko‘rib, dod deganman.

Kasal bola bilan kun o‘tkazish, yuziga qarash hech kimga oson emas. U nima yeb-ichayotganini bilmaydi, biror joyi o‘rinishini aytib bera olmaydi. Hech narsani idrok qilmaydi. Birpasda ahvoli yomonlashishi, o‘zini yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Shunday

paytda qo‘lingizdan hech narsa kelmasligi taqdiming eng og‘ir sinovidir.

Qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning ayanchli oqibatini men boshimdan o‘tkazib kelyapman. Bu taqdimi hech kimga ravo ko‘rmayman. To‘rt muchasi sog‘ farzand oilaga fayz, turmushga chiroy va hayotimizga mazmun beradi. Aksincha bo‘lsa, hayot mashaqqat va zahmatdan iboratdek tuyuladi. Yoshlarimiz to‘kis va baxtli oila qurmoqchi ekan, zinhor qarindoshlar o‘rtasidagi nikohga rozi bo‘lmasin. Oqibati azobli ekanini yodda tutishsin.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA yozib oldi.



Ilm darg‘alari

Hamidulla Boltaboyev
adabiyot muhibi,
USTOZ VA SHOGIRD — YALAKAT MAG‘IZIbrohim G‘AFUROV,
O‘zbekiston Qahramoni

XX asrning 70-yillarida ilk tanishganimizda Hamidulla Boltaboyev tiyrak yigit edi. U o‘qigan kitoblari, ularning sir-sinoatlarini tez ilg‘ab olar, kitobni yaxlit (bir butun) tasavvur qilar, aniq, biyron so‘zlar bilan hikoya qilib berar, xorijiy tillarni ham qiynalmasdan, zo‘riqmasdan qisqa vaqt ichida o‘rganib olardi. Universitetdoshlari uning xotirasiga hayron qolardi. Unda adabiyot ilmi – adabiyotshunoslikni bilish va tushunish uchun tabiiy tug‘ma xususiyatlar mujassamlashgandek ko‘rinardi. San‘atning murakkab hodisalarini tez “chaqardi”. Hamidulladagi tabiiy tiyraklik bilish, o‘rganish jarayonlariga, ularning qirralari tabiiy charxlanib borishiga kuchli ta’sir etsa kerak deb o‘ylardim.



Adabiyotshunos bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ammo u adabiyotshunos muallim bo‘lib tug‘ilgan. Xuddi Hodi Zarif, Izzat Sulton, Aziz Qayumov kabi. Shuning uchun tanilq rus olimi Yuriy Borev uni lutf qilib, “kichik oqsoqol” deb atagan, chunki oqsoqollar kabi aqlli, donoligi va ishlarni do‘ndirishini ko‘rgan.

Yirik hassos, adabiyotshunos olim Umarali Normatov o‘ta kamtarlik bilan: “Mening barcha asarlarim Hamidulla Boltaboyev qo‘lidan o‘tgan, uni shogirdim deb atashga iymanam”, deb yozgan edi.

Hamidulla Boltaboyev adabiyotshunoslik deb atalgan ajoyib, qiziqarli fanning barcha murakkab sohalari to‘g‘risida ilmiy-nazariy ishonchli mutaxassis so‘zini ayta oladi. Uning

yangi O‘zbekiston sharoitida universitetlarda “Adabiyotshunoslik va struktural poetika” deb nomlangan yangi fan tashkil etib, ma‘ruzalar o‘qiyotgani sotsialistik realizmning qizil chiziqlaridan so‘ng milliy mustaqillik davrida katta ilmiy, madaniy hodisa bo‘ldi. Yoshlarni vasvasaga soladigan qizil chiziqlar o‘miga endilikda “struktural poetika” tahlillari yoshlar tasavvurini boyitmoqda.


Yangi davrda adabiyot va san‘at sohalarida yangi g‘oyalar, yangi usul-uslublar qarashlari misoli do‘lday yog‘ilmoqda. Dam Baxtin, dam Veselovskiy, dam Potebnya, dam kazo-kazo jahon adabiyoti nazariyasi asoschilarining jild-jild postmodern darsliklari, talqinlari, tahlillari. Ular hammasi bir bo‘lib, yangi zamon ilmi

sifatida birlashib, barcha adabiyotshunoslardan ko‘plab o‘rganish, bilish, o‘zlashtirish, yangidan qurishni talab qilmoqda.

Adabiyotshunos hamkasblar shu ulug‘ jarayonda o‘zini misoli dorboz kabi sezmoqda, dorboz kabi yuksakda harakatlanmoqda. Ularning langari butun chigal terminologiyasi (Bataj, Gvattari, Gritsianov, Fuko, Rorti, rizoma, semiotika, simulyatsiya, “avtor o‘limi”, strukturalizm, transgressiya va boshqa maxsus shunday nazariy hodisalar) “struktural poetika”ni tushunish va tahlillariga suv bilan havoday zarur. Hozirgi zamon adabiyotshunosiga aslo oson emas. Lekin Hamidulla va hamkasb do‘stlarining g‘ayratli sa’y-harakatlari bilan yoshlarning ongi yangi tahlil qurollari yordamida ochilmoqda.

Umarali Normatov o‘z shogirdlari bilan zamon adabiyoti va nazariyadagi o‘zgarishlar, o‘zbek nazariyasidagi yangilanish intilishlari haqida juda qiziqarli suhbatlar qilardi. U Hamidulla Boltaboyev bilan ham ikki bora keng-batafsil suhbat qilgan edi. Ularning biri “Yangi nazariy tamoyillar va yangilanayotgan adabiy jarayon” deb atalardi. Bu adabiyotda yangilanishlarning o‘ziga xos debochalaridan biri edi. Umarali Normatov Rahmon Qo‘chqor va Dilmurod Quronov bilan ham salmoqli suhbatlar qilgan. Bular adabiyot hodisalari bilan yaqindan qiziqish va rivojlanishdan o‘ta manfaatdorlikning mahsullari edi. Rahmon Qo‘chqor bilan suhbatda ustoz “Oltmish yildan ortiqdiki, adabiyot ichidaman”, deb aytgan.

Umarali aka Hamidulla Boltaboyev, Dilmurod Quron, Ulug‘bek Hamdam, Rahmon Qo‘chqor, Shoira Normatova singari shogirdlarini bir umr doimo “adabiyot ichida” bo‘lishga da’vat etardi. Ularni shunga rag‘batlantirardi. Ular ustoz o‘g‘itini bir dam



yoddan chiqarmay, hozirgi zamon adabiyotining tugal manfaatlari bilan yashash, nafas olishga, milliy adabiyotimiz ravnaqidan bahramand bo‘lishga odatlangan.

Buni men, mabodo, balandparvoz eshitilmasa, adabiyotshunosning chin fidokorligi deb atagan bo‘lardim. Ustoz Umarali Normatov ko‘kartirgan bog‘ uzoq zamonlarga yetib boradigan samara berdi. O‘zbek adabiyoti bag‘rida “Umarali Normatov maktabi” degan fidokorlik maktabi maydonga chiqdi. Hamidulla Boltaboyevning ayrim asarlarini sanab o‘tsam, o‘quvchilarimiz bu gapning haqiqatiga ishonch hosil qilsa kerak. Hamidulla Boltaboyev o‘zbek ilmda ilk bora “Adabiyot ensiklopediyasi”ni yaratdi. Men bu ulkan qomusning qo‘lyozmasi bilan tanishman. Uning mutolaasi vaqtida Hamidulla bilan necha-necha bor uzoq suhbatlar qilganmiz, tortishganmiz, asosiy

yo‘l-yo‘riqlar shakllanishini kuzatganmiz, tili, uslubi, qamrovi qanday bo‘lishi kerakligi ustida kunlab, oylab bosh qotirganmiz. Aziz Qayumov va Naim Karimov qomus haqida uni qutlab, teran maqolalar yozdi. Ularning maqolalarida ham bizni, uni tuzishda jonkuyarlik bilan hamkor bo‘lgan faylasuf olim va adib Mahkam Mahmudovni o‘ylantirgan masalalar aks etganini aytib o‘tishim kerak. Ammo Hamidullaning shijoati bilan qomus yuzaga keldi va u qomuschiligimizda sezilarli voqea bo‘ldi. Undan so‘ng Hamidullaning yana bir qimmatli asari “Sharq mumtoz poetikasi” dunyoga keldi. U bu ajoyib ba‘lumotlarga nihoyatda boy kitoblar ustida xuddi farang qomuschisi Monteskyoga o‘xshab o‘zini ayamay, butun jonini shu ishlarga bag‘ishlab ishladi. Bilimni chin ma’noda oshiradigan, tarixda qoladigan kitoblar yuzaga chiqdi.

Hamidullaning “Fitrat va jadidchilik” kitobi chiqqanda, u o‘quvchilarni yana bir karra hayratga soldi. U xuddi Naim Karimov, Sherali Turdiyev, Begali Qosimov, Boybo‘ta Do‘stqorayev, Sirojiddin Ahmedovning ma‘lum va mashhur kitoblari kabi jadid adabiyoti quyoshini samoga olib chiqdi. Fitratning millat ozodligi, madaniyati, ilmi, adabiyotining yuksalishi uchun mislsiz fidokor faoliyati barcha oldin qirralari va tarixiy, ijtimoiy, siyosiy abamiyati bilan xalqimiz ko‘z o‘ngida to‘liq namoyon bo‘ldi. Uni men Fitrat va o‘zbek milliy ma’rifati harakati haqidagi bebaho qomusday o‘g‘idim. Buning ustiga, Hamidulla Fitratning buyuk “Munozara” asarini fors tilidan o‘zbekchaga to‘la ilmiy salohiyat bilan tarjima qildi. Go‘zal “Sayha”ning she’rlarini ilk bora tilmiziga o‘girdi. “Sayha” milliy dardlarimizga darmon va malham bo‘ldi.

Mislsiz kurash yo‘lini ko‘rdik. Inson o‘z muhabbatida qanchalar yuksaklarga ko‘tarila olishi mumkinligiga komil ishonch hosil qildik. Hamidulla “Hind sayyohi”ni ham juda jiddiy o‘rganib, o‘zbekchaga tarjima qilib, nashrga tayyorladi. U Fitratning besh jildli asarlarini boshdan-oxir ilmiy izohlar, yarialish, ijtimoiy hayotga kirish tarixlari bilan birga chop etdi. “Mumtoz so‘z” nashriyotini tashkil etdi. Unda adabiyotimiz tarixining ulkan namoyandalari asarlarini xalqimizga tuhfa qildi.

Hamidulla Boltaboyevning tadqiqotchi olim Mahkam Mahmudov bilan hamkorlikda “Adabiy-estetik tafakkur tarixi” uch jildli asari jahon estetika fanining necha ming yillik tarixini o‘rganishga havasmand o‘zbek o‘quvchilariga munosib sovg‘a bo‘ldi. Men “adabiyot va ilm ichida yashash” nimaligini o‘quvchilarimizga anglatmoqchi bo‘lganida Hamidullaning mana shunday miqyosli, ko‘lamli asarlarini nazarda tutgan edim. Uning barcha yozgan asarlari, o‘qigan ma‘ruzalarining bibliografiyasi bir jildni tashkil etadi. Qomuschi olim, ijodkor, fan tashkilotchisi, muallim, professor do‘stimni muborak yetmish yoshi bilan qutlayman. U ulug‘ ustozlari, ularning o‘g‘itlariga munosib qadam tashlayapti. O‘zbekiston ilm-fanini dunyo miqyosiga olib chiqishga g‘ayrat bilan sa’y-harakatlar qilaypti. O‘ttizdan ortiq ilm-fan entuziastlari yetishtirdi. Ular ham ustoz izidan sadoqat bilan g‘ayrat kamarini bog‘lagan, ilm qutlug‘dir deb imon keltirib, e’tiqod qilgan.

“Eng qimmatli narsa — harakatchan, faol yurak”, deydi Amerika adibi Ralf Emerson. “Yurak — olmos”, deydi Qudrat Hikmat. Olmos yuraklar aslo tolmasin.

Shukrona

Har yili avgust oyi yaqinlashar ekan, xayolimga eng birinchi keladigan kun – Mustaqillik bayrami. Hayotbaxsh bayramni eslash esa tug‘ilib o‘sgan qishlog‘imni, bolalik davrlarimni kino tasmaidek ko‘z oldimda namoyish qila boshlaydi. Negadir men bu kunning shukuhini, ahamiyatini aynan qishlog‘im timsolida tasavvur qilaman. Sabablarini esa sanab bera olarmikanman?

Bolaligimiz odamlar ongida sobiq tuzum sog‘inchining vatan mustaqilligiga bo‘lgan ishonchga aylana borishi davriga to‘g‘ri keldi. Juda yaxshi eslayman — o‘sha pallalarda qishlog‘imizning yoshi kattalaridan “SSSRda gugurt bir tiyin edi, yerto‘lalarda shakar uyulib yotardi, falon narsa tekin bo‘lardi” kabi gaplarni juda ko‘p eshitardik. Bola bo‘lsam ham bu gaplar noliq alomatni ekanini teran anglardim. Bu gaplarni eshitardik-da, mung‘ak aqlimizda ham taqqoslash boshlanib ketardi — u qanday zamon bo‘lgan ekanki, odamlar buncha maqtaydi, hozir-chi, hozir qanday zamon, degan savollar xayolimizda g‘ujg‘on o‘ynardi.

Bu savollarga keyinchalik maktabdagi o‘qituvchilarimiz orqali javob topdik. “Dunyoda o‘z o‘mimizni topish oson bo‘lmaydi, vatanimizga sizlarning yordamingiz kerak bo‘ladi, shuning uchun yaxshi o‘qinglar”, degandi ona tili va adabiyot o‘qituvchimiz.

Darhaqiqat, boshida oson bo‘lmagani aniq. Bir qishlog‘imiz misolida oladigan bo‘lsak, shu vaqtga qadar odamlarni ish bilan ta’minlab turuvchi asosiy ikki korxona — traktor parki hamda tovuq fabrikasi edi. Ikkalasida qo‘shib hisoblaganda, 200 dan ortiq qishloqdoshimiz ishlab, ro‘zg‘or tebratib kelgan. Biroq davlat

tasarrufidagi bu kabi korxonalar xususiylashtirib, tadbirkorlarga sotilishi odamlarning tumshuk tarziga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Korxonalarni sotib olgan tadbirkorlar ularni yanada rivojlantirish o‘rniga qismlarga bo‘lib sotishni boshladi — shu tariqa 2-3-yil mobaynida yuqorida aytganimiz 200 dan ortiq hamqishlog‘imizning asosiy qismi ishsiz qolgan edi. Bunday holat butun mamlakatimiz bo‘ylab yuz berganidan bir oz ulg‘ayib xabar topdim. Mazkur holatda odamlarning yagona ko‘zi yetadigan chorasi migratsiya bo‘ldi.

Biz migrantlar masalasini yaqin-yaqingacha hatto tahlil ham qilmadik, aynan shu jarayon jamiyatimizga tutilayotgan ko‘zg‘u ekaniga befarq bo‘ldik, yaqin yillargacha ularni qaytarish, mamlakatimizning o‘zida ish bilan ta’minlash borasida jiddiy bosh qotirmadik. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ular o‘zi bilan olib kelgan tajribalarga ham qiziqib ko‘rmadik. Migratsiyaga tabiiy jarayon emas, “kemtik” sifatida qarashda davom etdik.

Bir kitobda o‘qigan edim: “Ozodlik o‘zingdagi barcha yutuqlar va kamchiliklarni baravar tan olish bilan kamol kasb etdi”. Biz esa bu jarayonga ancha kech yetib keldik, ishsizlik, kambag‘allik haqida, umuman, gapirilmay qo‘yilgan davrlarni ko‘pchilik yaxshi eslasa kerak.

Ozod fikr kurtaklari

Tarixga haqqoniy baho berish madaniyat uchun hamisha muhim. Inson esa tabiatan o‘qiganiga emas, eshitganiga ko‘proq ishonadi. Xuddi eshitilgan ma’lumot tasdiqlangan ma’lumotdek tuyuladi. Biroq adolat tarozisi borki, qaysi tomon ko‘proq tosh bosishi aynan unda oydinlashadi.



Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon xalqimiz dunyoqarashi ancha o‘sdı. Har qancha kamchiliklarga qaramay, aksar otanalar farzandlari ta’limiga e’tibor bera boshladi — “O‘qib olim bo‘larding” mazmunidagi gaplar kundalik iste’moldan deyarli chiqqaniga hammamiz guvoh bo‘lyapmiz. O‘qimishli insonlarga mamlakatning ramziga aylanadi — bir asr oldin Yevropa jamiyatida urfda bo‘lgan mazkur tushuncha bizda ham ommalashdi. Aslida, mustaqillikning eng totli mevasi ozod fikrli, ilmi jamiyatdir. Chunki mustaqil va osoyishta mamlakatdagina bexavotir ilm hosil qilinadi, kattayu kichikda qiziqish paydo bo‘ladi.

Dunyoning umumiy kayfiyatidagi o‘ta nozik nuqtalar borki, ularni sinchilik bilan anglab olish kishidan neytral taqqos talab qiladi. Bir mashhur

filmda XXI asrga “ko‘rinmas qurollar asri” deb baho beriladi. Darhaqiqat, shunday. Agar dunyoda so‘nggi 20-yildagi hududiy mojarolar tarixiga nazar tashlasak, ularning barchasi axboriy xurujlardan boshlanganiga guvoh bo‘lamiz. Demak, bugungi sinchi nazarning dastlabki va asosiy nishoni aynan axborot bo‘lishi lozim. Bugun kimki axborotdan to‘g‘ri himoyalansa, yo‘lidan og‘ishmaydi. Ozod fikr, albatta, iste’mol farosati bilan kamolotga erishadi.

Ijoiy kayfiyat ehtiyoji

Global tarmoqlardagi markazlashuv butun dunyoda, jumladan, yurtimizda ham salbiy kayfiyat yaratuvchisiga aylandi. Rivojlangan

mamlakatlarda bunga qarshi yagona chora axborot maydonida milliy mahsulotlar sonini oshirish deb qaralgan.

Afsuski, ayrim mamlakatlar o‘ziga nisbatan munosabatni oshirish uchun “oq piar”dan ham mohirlik bilan foydalanayotir. Ya’ni kontentlarda faqatgina mamlakatning yutuqlari aks etadi, ularda eng mayda detallargacha nihoyatda sinchkovlik bilan e’tibor beriladi. Bu esa global tarmoqlardagi foydalanuvchilarda simpatiya paydo qiladi — “parast”lar sonini oshiradi. Ming afsuski, ana shunday “oq piar”lardan ham himoyamiz havas qiladigan darajada emas. Milliyligimiz, tariximiz qolib, g‘arblashuvning qizg‘in tarafdoriga aylanib qolganlarni ko‘p uchratamiz — aynan shular “oq piar”larning qurbonlari hisoblanadi.

Qani o‘sha hikoyalar?

Bolaligimizda 3-4 nuroniy yig‘ilib o‘tirsas, yoniga borib olib, suhbatini tinglab o‘tirishni yaxshi ko‘rardim. Ular, asosan, olis-olis yillar haqida gaplashardi. Tilidan shukr arimas edi. Endi o‘ylasam, aksariyatimiz bugun faqatgina kamera qarshisida yoki ovqatlanib bo‘lgach, shukr aytaypimiz, xolos. Boshqa paytlarda esa shukronamiz ozayib ketgandek. O‘sha suhbatlarda bobolar qarshisida na videokamera, na ovozyozgich bor edi, ammo tilidan shukrona arimas edi. Shukr yo‘q yerda halovat ham uzoq turib qolmaydi, degan gaplarini tez-tez eslayman-u, arzimas narsalarga noliq chekishlarimdan uyaliy ketaman.

Umrimiz taqqoslarga asoslanib qolgandek, bir tanga topganda o‘zimizni 2 tangasi barga taqqoslab, ichimizni kemiramiz, 10 tanga topsak, 100 tangalining hayot tarzi tinchimizni

o‘g‘irlaydi. Qanoatning chegaralari qayerda qoldi, qiziq? Bir paytlar Hazrati inson deya ulug‘langan odam bugun nimalarning qayg‘usi bilan andarmon?! O‘z qobig‘imizga o‘ralib, “o‘zimga, o‘zimga”, deydishdan otmayapmiz-ku! Hammamiz o‘zimizga deyaersak, bu ozodlikni, bu qadriyatni kim avlodlarga yetkazadi? O‘zlikni shu zaylda sovuraversak, oqibat nimamiz qoladi?

Bugun aksariyatimiz o‘tgan zamonlarning hikoyasini eshitsak, hayron bo‘lamiz, ba’zan ensamiz qotadi. O‘tgan o‘tib ketdi, bo‘ladigan gapni gapir, deymiz. Lekin tarix hamisha takrorlanish xususiyatiga ega, qiyin davrlar kuchli odamlarni, kuchli odamlar yaxshi davrlarni, yaxshi davrlar esa dangasalarni yaratadi. Xo‘sh, dangasalar nimani yaratadi? Ular tag‘in qiyin davrni yaratadi. Biz aynan qaysi bosqichda ekanimizni o‘zingiz anglashga harakat qiling. Tarixning xatolaridan xulosa qilmagan jamiyat yana tarixni xatolar bilan to‘ldiraverishi bor gap. Go‘yo bizga o‘tgan kunlarimiz haqida ko‘proq eslatadigan o‘sha bobolarimiz hikoyalari yetishmayotgandek...

Mehnat farovonlik keltiradi

Texnika taraqqiyoti davrida istalgan narsani ko‘rishingiz mumkin, demak, o‘z-o‘zidan shirin xayollarga berilish ham oson. Lekin ming shirin bo‘lmasin, xayol xayoligicha qolaveradi, unga qorin to‘yarmidi? Xayol bilan bo‘ls shu kosa to‘lmas, yoritq choponga yamoq bo‘lmas.

Bugun mehnatning zamoni, kim mehnat qilsa, qulochi ham kengayadi. Shahd bo‘lsa, shijoat bo‘lsa, mehnatning og‘iri yo‘q. Eh-he, mustaqil vatanimizni yuksaltirish uchun hali qilinishi lozim bo‘lgan qancha ishlarimiz bor. Buning zahmatini o‘zimiz bo‘ynimizga olmasak, chetdan kelib hech kim qilib bermaydi. Zero, zahmatini o‘zimiz cheksakkina, rahmatini ham o‘zimiz eshitamiz.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrız qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 3160. 41369 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefonı: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov Musahhih: Asliddin Abdurazaqov Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy